



NA'MATAK MEVASI (FRUCTUS ROSAE) NING DORIVOR XUSUSIYATLARI

Muhammadova Lazokatxon Nodirjon qizi
Xudoyberdiyeva Mashxura Djourayevna
Andijon Davlat Tibbiyot Instituti, O'zbekiston
E-mail: lazokatxon005@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqola o'simlik turlari, organizmga foydali va zararli tomonlari haqida ma'lumot berilgan. Na'matak erta bahorda chiroyli pushti rangda gullaydigan, yozning oxiri va sentyabrning boshida pishib yetiladigan mevalari bilan quvvatlantiradigan ko'p yillik tikanli buta. Uni "yovvoyi atirgul" nomi bilan ham atashadi*

Kalit so'zlar: *Na'matak (rosa) va uning turlari, geografik tarqalishi, biologik xususiyatlari, kimyoviy xususiyatlari, farmakologik xususiyatlari.*

Abstract: *This article provides information about the plant species, their benefits and harms to the body. The rosehip is a perennial thorny shrub that blooms in beautiful pink in early spring and is energized by its fruits that ripen in late summer and early September. It is also called the "wild rose".*

Keywords: *Rose and its species, geographical distribution, biological properties, chemical properties, pharmacological properties.*

Аннотация: *В этой статье представлена информация о видах растений, их пользе и вреде для организма. Шиповник — многолетний колючий кустарник, цветущий ранней весной красивыми розовыми цветами и заряжающий энергией благодаря своим плодам, созревающим в конце лета — начале сентября. Его также называют «дикой розой».*

Ключевые слова: *Роза и ее виды, географическое распространение, биологические свойства, химические свойства, фармакологические свойства.*

Kirish. Na'matakning tibbiyotda foydalaniladigan oltita turi mavjud:

- Rosa cinnamomea L. – may na'matagi
- Rosa acicularis L. – tikanli na'matak
- Rosa Davurica L. – Dauriya na'matagi
- Rosa Beggerina L. – begger na'matagi
- Rosa Fedtschenkoana L. – Fedchenko na'matagi
- Rosa canina L. – itburun na'matagi

Na'matak turlari bo'yi 2 metrga yetadigan tikanli buta. Novdasi yaltiroq, qo'ng'ir – qizil yoki qizil – jigarrang tusli po'stloq bilan qoplangan. Po'stloqda na'matak turlariga qarab har xil kattalikdagi va soni har xil tikanlar bo'ladi. Bargi toq patli, poyada bandi bilan ketma ket joylashgan. Bargchasi 5 – 7 ta bo'lib tuxumsimon shaklli, arrasimon qirrali, qo'shimcha (yon bargchalari) oq rangli va xushbo'y hidli. Guloldi barglari lansetsimon. Gulkosacha bargi va gultoj bargbargi 5 tadan, changchi va urug'chisi cheksiz ko'p sonli mevasi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



gulo’rnidan hosil bo’ladigan shirali soxta meva Ichida urug’chilaridan hosil bo’lgan bir nechta haqiqiy meva – yong’oqchalari bor. Yong’oqchalari o’tkir uchli sertuk burchaksimon shaklga ega. May oyidan boshlab gullaydi, mevasi avgust – sentyabr oyida pishadi.

Na’matakning ayrim turlari bir – biridan mevasining , novda po’stlog’idagi tikanning rangi, shakli, katta – kichikligi hamda novdadagi tikanlar soni va joylashishi bilan farq qiladi.

Rosa Beggeriana va Rosa Fedtschenkoanalardan tashqari qolgan na’matak turlari Yevropa , Sibir, Uzoq Sharqlarda keng tarqalgan. Rosa Beggeriana va Rosa Fedtschenkoana O’rta osiyo tog’larida uchraydi. Rosa Fedtschenkoana bo’yi 2 – 3 va ba’zan 6 metrgacha yetadigan buta. Tikanlari yirik, gorizonta joylashgan, qattiq asos qismi kengaygan bo’lib , yirik shoxlarida zichroq joylashgan. Murakkab barg bo’lakchalari barglari qalin, zangori tuksiz. Gullari yirik, oq yoki pushti. Mevasi yirik (5 sm gacha uzunlikda) , etli to’q qizil , tuxumsimon. Asosan O’rta Osiyo tog’larida o’sadi. O’zbekistonning Toshkent, Farg’ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog’li hududlarida ko’p tarqalgan.

Na’matak gullari shifobaxsh xususiyatga ega emas, ammo mevalari xalq tabobatida keng qo’llaniladi. Na’matak mevalari ko’pincha avitaminoz kasalliklarida qo’llanadi. Urug’idan olingan moyi va mevasining yumshoq qismidan tayyorlangan ekstrakti kuyganni, teri kasalliklari, rentgendan kuygan yaralar, tropik yaralar, ekzema, yarali kolit va boshqa kasalliklarda ishlatiladi. Na’matakning ba’zi turlaridan vitaminli sharbatlar (siroplar) tayyorlanadi. Odatda tabobatda na’matakning damlamasi foydalaniladi. Shamollash kasalliklarini oldini olish uchun tavsiya etiladigan na’matak askorbin kislotasi ya’ni vitamin C manbai hisoblanadi. Na’matakning kimyoviy tarkibida C,B₂, K vitaminlari, karotinlar , oshlovchi moddalar va pektin moddalari bor. Hozirgi kunda olimlar tomonidan na’matak tarkibidagi flavinoidlar ham chuqur o’rganilmoqda. Bilamizki na’matakning yog’li ekstrakti “Xolosas” o’t yo’li kasalliklarida safro haydovchi vosita sifatida qo’llaniladi. Ushbu terapevtik xususiyat bevosita tarkibidagi flavinoidlar bialn bog’liq.

Na’matak shifobaxsh vosita sifatida foydalanish uchun ko’plab ko’rsatmalar mavjudligiga qaramay, u inson organizmiga salbiy ta’sir ko’rsatishi ham mumkin. Na’matak ko’p iste’mol qilish oshqozon sekretsiasining oshishi ya’ni kislotalilikni oshishi, gastritni rivojlanishi, allergik (dermatologik) holatlar, qon tomirlarida tromblarning shakllanishi, endokatdit, pankreatit kabi kasalliklarning rivojlani shiga olib keladi.

Na’matakni ehtiyotkorlik bilan qo’llash kerak. Chunki u tish emalining yupqalashishini tezlashtiradi, ich qotishi ya’ni qabziyatga sabab bo’ladi, safro sekretsiasini sekinlashtiradi, qon bosimini ko’tarilishiga va xalq orasidagi sariq kasalligi deb nomlanuvchi kasallikning rivojlanishiga olib keladi. O’simlikning kundalik me’yor katta yoshdagilar uchun 10 ta mevani tashkil qiladi. Bunda ularni maydalab choyga qo’shish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, na’matakda inson salomatligi uchun foydali moddalar ko’p. Biz uning shifobaxsh xususiyatlaridan foydalanib yangi dori preparatlari, uning yangi plantatsiyalarini yaratishimiz zarur. Maqsadimiz O’zbekistonning dorivor o’simliklaridan olinadigan tabiiy dorilarni jahon miqyosiga tadbiq etish.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.X.Xolmatov, O'.A.Ahmedov Farmakogneziya Toshkent 2008
2. Po'latova T.P, Xolmatov H.X Farmokognoziya amaliyoti Toshkent 2002
3. A.S. Dariyev, B.A. Sirojiddinov, E.YU. Ro'zmatov Na'matak (Rosa L) morfologiyasi, anatomiyasi, ekologiyasi Andijon-2016
4. Kellner, A.; Benner, M.; Walther, H.; Kunzmann, L.; Wissemann, V.; Ritz, C. M. [„Leaf Architecture of Extant Species of Rosa L. and the Paleogene Species Rosa lignitum Heer \(Rosaceae\)“](#).
5. Web.extension.illinois.edu [„The History of Roses - Our Rose Garden - University of Illinois Extension“](#)

